

HUVAYDO G'AZALLARI MAZMUN-MOHİYATI

Murodova Barnoxon Kamalxodja qizi

ToshDO'TAU stajyor-tadqiqotchisi

+998946450450

Annotatsiya: *Maqolada Huvaydo lirikasining mazmun-mohiyati, unda qo'llanilgan badiiy san'atlar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Navoiy, devon, orif, qo'lyozma, toshbosma, talmeh*

Annotation: *the article talks about essence of the Huwaydo lyrics and the artistic arts used in it.*

Key words: *Navoi, devon, orif, manuscript, lithograph, talmih*

KIRISH

Ma'lumki, o'zbek adabiyoti o'ziga xos taraqqiyot yo'li hamda bosqichlariga ega bo'lgan boy adabiyotdir. Bu adabiyot XV asrning ikkinchi yarmiga kelib o'z rivojining eng yuqori darajasiga erishdi. Xususan, Alisher Navoiy ijodiyoti keyingi davrlarda tug'ilib, voyaga yetgan ijodkorlarning deyarli barchasi uchun mahorat maktabi bo'ldi. Shu bois XVI asrdagi ilg'or va peshqadam qalamkashlar o'zlarigacha mavjud bo'lgan, birinchi navbatda, Navoiy ijodiga xos an'analarni davom ettirgan holda, zamon va davr ehtiyojlarini ham hisobga olib, turfa asarlarni ijod qilishga bel bog'ladilar. Bu an'ana XVII-XVIII asr ijodkorlarida ham davom etdi. Qo'qon adabiy muhitining yorqin namoyondalardan biri orif shoir Xo'janazar Huvaydo Navoiy she'riyatining davomchisi sifatida maydonga kirdi.

Huvaydoning bizgacha 351 g'azal, 28 ruboiy, 41 to'rtlik, 3 muxammas, 1 musaddas, 1 musamman, 1 mustazod, 3 masnaviy va "Rohati dil" manzumasi meros qolgan bo'lib, nabirasi Sirojiddin Soqib uni devon holiga keltirgan. Adib devoni xattotlar tomonidan qayta-qayta ko'chirilgan bo'lib, O'ZFA SHI Asosiy fondida yettita qo'lyozma, o'n ikkita toshbosma, Hamid Sulaymon fondida esa yana to'qqizta qo'lyozma, Alisher Navoiy nomli milliy kutubxonada bitta toshbosma devoni saqlanmoqda. Yuqorida keltirilgan qo'lyozma (asosan, 12759 va 7484) va toshbosma nusxalari asosida 2005 yil kitob holida ham nashr etilgan.

Xalq og'zaki ijodi Huvaydoning she'rlariga ijobiy ta'sir o'tkazib, ularning xalqchilligi va badiiyligini kuchaytirishga xizmat qilgan. Buni uning xalq maqollari va matallaridan ustalik bilan foydalana olganidan ham bilish mumkin. Masalan, u bir g'azalida "Boshingg'a qilich kelsa ham rost gapir" maqoliga monand

Rost ayg'il egri hargiz so'zlama



Ey Huvaydo, kelsa boshingga qilich (65)
misralarini keltiradi.

Yoki bo'Imasa Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" devoni fotihasi hisoblanmish
Ashraquat min aksi kaasi anvorul hudo,
"Yor aksin mayda ko'r" deb jomdin chiqdi sado
baytiga hamohang

Bir sado chiqsa qadahdin yorni ko'r mayda deb,

Ko'ra olmassan dedi to etmaguncha mayni sof (158)

bayti orqali "ishq sof, haqiqiy bo'lmas ekan, unda, ko'ngilda yor aksi, Alloh
tajallisini ko'ra olmaysan" degan sado chiqdi deb tushunishimiz mumkin.

Umuman, Huvaydoning she'rlari orasida Allohning sifatlarini nomma-nom
sanagan o'rinlarni ham ko'ramiz:

Sifotingdur sani Subhon Rauf-u ham Rahim Rahmon,

Qaim-u "lam yazal" Sansan, Karim-u Hay-yu lo mavto.(5)

Shuningdek, Qur'on oyatlariga ishora qiluvchi misralar tez-tez uchraydi. Bu,
albatta, bizningcha, o'ziga xos bir ijobiy hodisadir. Shuni ham ta'kidlash kerakki,
Huvaydo tasavvufni chuqur bilish, shaxsiy hayotida tasavvufiy haqiqatlarga rag'bat
bildirish bilan kifoyalanib qolmasdan, diniy-tasavvufiy adabiyot xazinasiga o'zining
katta hissasini qo'sha olgan shoir hamdir.

Ahad sansan, Somad sansan erusan "lam yalid" beshak,

Va "lam yulad" sanu mulki shariksiz, shohi behamto"(5)

(Bu so'zlar "Ixlos surasi"ning 3-4-oyatida zikr qilingan:ya'ni ,albatta, Alloh
tug'magan va tug'ilmagan zotdir. Boshqa bir g'azal esa boshdan-oxir
payg'ambarimizni insonlarning eng sharaflisi, nabiyalar peshvosi ekanligini bayon
etadi:

Sansan rasuli olamin, sansan imomul muttaqin,

Sansan shafiyul muznibin xodila muzillin, ahadno. (2)

Huvaydo she'rlarida orifona mazmundagi she'rlar bilan bir qatorda dunyoviy
muhabbatni tarannum etuvchi, mahbubaning go'zalligi, rahmsizligi, visol umidi,
ayriliq va hijron azoblari haqida ham so'z yuritiladi. An'anaviy yo'lda bitilgan bu
she'rlarning mavzusi singari, obrazlari ham an'anaviydir. Shoir o'zini Majnunga,
ma'shuqasini Layliga o'xshatgan bir g'azalida ishq dardiga muhtalo holatini
shunday tasvirlaydi:

Bo'lib Majnun boshim olib chiqibmen ko'h-u sahrog'a

Ayo Layli sani deb el-u yurtimdin judo bo'ldim. (244)

Shoir lirikasi o'zining g'oya va mazmunlari bilan emas, poetik tasvir vositalari
va usullari bilan ham diqqatga molik. Uning she'rlarida Sharq she'riyatida keng



qo'llanilgan bir qancha badiiy san'atlarga duch kelish mumkin. Masalan, shoirning talmihlarini olaylik. Taniqli, navoiyshunos Y. Is'hoqovning yozishicha, talmih "shoirlarga bir ishora bilan chuqur ma'noni ifodalash sonini beruvchi san'atdir. U istiora, tashbih kabi san'atlardan farqli o'laroq ijodkorlarga tarixiy va afsonaviy voqealarga, masallar, mashhur asar va qahramonlar obraziga ishora qilish va shu yo'l bilan o'z fikrini mo'jaz holda kuchaytirish uchun imkoniyat tug'diradi".

Huvaydo mana shu imkoniyatdan nihoyatda unumli foydalana olgan. Shoir bir o'rinda Sulaymonning uzugi, Jamshid jomi ularga naf'i teymagani, bu dunyoda shohlar ham boqiy emasligini, ibrat ko'zini ochib Hudo yo'lga kirishga chaqiradi:

Sulaymonsan bu dunyoda va yo Jamshid va yo Bahrom
Na sud etti Sulaymonga uzuk, Jamshidga jom.

Xo'janazar Huvaydo tasavvuf ta'limotiga o'zini juda yaqin sezganligi va tasavvufning sir-asrorlarini chuqur o'qib-o'rganganligi tufayli haqiqiy ishq shavqi bilan o'nlab orifona g'azallar ham yaratgan edi. Shu bois uning g'azaliyotida orif va darvesh obraziga xos xususiyat, holat va istaklar tasviri o'ziga zamondosh shoirlar g'azallariga nisbatan bo'rtib ko'zga tashlanib turadi.

Tasavvufdagi zikr turlaridan biri va yassaviya tariqatiga tatbiq etilgani "zikri arra"dir. Bu zikr "Huv" deb ham ataladi. U haqda "Sharafnomayi shahiy"da naqshbandiya peshvolaridan Xoja Muhammad Islomga tegishli bir rivoyatda bunday deyilgan: «U bolalik chog'larida ul hazratni (Hazrati ali ko'zda tutilgan) – uch martatushda ko'rdilar; birinchi tushda bu janobni huzuriga chaqirib, fashohat bayon qilg'uvchi og'izlarini uning og'izlariga qo'yib, "Huv" zikrini dam urdilar va dedilarkim, "Huv" zikri xosul-xosdir. Sen uni zikr qilib, xosul-xoslardan bo'lib qolursan. Binobarin, senga "Huv" zikrini talqin qildim".


Tariqat vakillaridan ba'zi kishilar "Huv" zikrida "vov" harfi talaffuz qilinsa, "g'aybiy huvviyat" ga ishora bor desalar, ba'zilari "vov" harfi tilga olinmaydi deydilar. Huvaydo ham keyingi qarashni yoqlagan bo'lsa kerak, "Hu" zikridan she'rlarida ko'p foydalanadi. Albatta bu kabi she'rlarda "Hu" dan maqsad Alloh Taolodir.

Visolingni so'rog'lab ro'baro' darbadar yurdim,
Gadolardek eshiklarda borib "hu" deb sado qildim. (236)

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Huvaydo ijodi sunniy tasavvufning yorqin ko'zgusi, unda diniy tushunchalar bilan dunyoviy turmush tarzi mushtarak yoritilgan. Lirik qahramoni esa Haqqa yetishishga umidvor, biroq





bu yo'lda faqat o'zi emas, do'stlariga ham rag'bat ulashuvchi, toat-ibodatda yaxshiliklar bilan hayot kechiruvchi inson sifatida gavdalanadi. Shoir lirikasida Qur'on oyatari va tarixiy voqealar, shaxslarga murojaat qilish orqali talmeh san'atining go'zal namunalari yaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xo'janazar Huvaydo. Devon. Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2005.
2. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami, X jildlik. –Toshkent.
3. Huvaydo. Devon. O'z FA SHI inv.7484
4. Исҳоқов Ё. Талмиҳ // Ўзбек тили ва адабиёти, 1970. №3. Б. 66-69.

